O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti

"TASDIQLAYMAN"
Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro
universiteti rektori:
_______________ Park Joon Ho
2023-yil "07" dekabr

# Akademik tizim NIZOMLARI

1. Talabalar safidan chetlashtirish, talabalar tarkibidan chiqarib yuborish va qayta tiklash to'g'risidagi NIZOM (1-илова)
2. "F" bahoni qayta o'zlashtirish NIZOMI (2-илова)
3. Akademik ta'til berish NIZOMI (3-илова)
4. Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga boshqa o'quv yurtidan ko'chirib kelish NIZOMI (4-илова)
5. Talabalarni kusrdan kusga o'tkazish to'g'risidagi NIZOM (5-илова)
6. Qo'shimcha semestr NIZOMI

Akademik Nizomlar Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti professorlar Kengashida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

2023-yil 01-dekabr

Farg'ona- 2023

# Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti

# Talabalar safidan chetlashtirish, talabalar tarkibidan chikarib yuborish va qayta tiklash to‘g‘risidagi Nizomi

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universitetida tahsil olish davrida talabalar safidan chetlashtirish vaziyatlari uchun joriy etiladi.
2. Talabalar safidan chetlashtirilishi universitet rektorining buyrug‘iga muvofiq rasmiylashtiriladi.
3. Nizomda ko‘rsatilgan qoidalar Farg‘ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti professorlar Kengashi tomonidan ko‘rib chiqilishi va zarur holatlarda tegishli qaror bilan o‘zgarishlar kiritilishi mumkin bo‘lib, o‘zgarishlarning kuchga kirish va amal qilish muddati Kengash qarorida ko‘rsatib o‘tilgan tartibda mazkur Nizomdagi o‘zgarishlar qonuniy kuchga kirishi belgilanadi.

## 2-bob. Talabalar safidan chetlashtirish

4. Universitet Ustavi va o‘quv jarayoni shartlariga ko‘ra quyidagi holatdarda talabalar safidan chetlashtiriladi:
   **4.1.** Shartnomada belgilangan kontrakt shartlarini bajarmaganligi sababli;
   **4.2.** Talabaning arizasiga ko‘ra o‘z xoxishi bilan;
   **4.3.** Akademik ta’til muddati tugagandan so‘ng, 3 hafta (21 kun)dan ortiq muddat ichida universitetga qaytib kelmagan hollarda;
   **4.4.** 4 haftadan ortiq sababsiz dars qoldirgan hollarda;
   **4.5.** 3 marotaba akademik ogohlantirish olgan hollarda;
   **4.6.** Bir semestr davomida darslarning 5 ta va undan ko‘p fanlarni o‘zlashtirmagan (F baho olgan) vaziyatda; (Agar dekan talaba bilan suhbat orqali yozma bildirgi bersa va talaba tilxatini taqdim etsa (talaba va ota-onalarning imzolari talab qilinadi) shartli kursda-kursga o‘tishi mumkin. *Kursdan kursga o ‘tish nizomi 6.2–bandiga qarang*)
   **4.7.** Ichki tartib-qoidalar, odob-ahloq Kodeksi qoidalari buzilishi yuzasidan universtet intizomiy komissiya qarori asosida;
   **4.8.** Talaba sud tomonidan ozodlikdan maxrum etilganligi munosabati bilan;
5. Talabalar safidan chetlashtirilgan talabarlar tegishli kursi va semestridan o‘qishga qayta tiklash huquqiga ega bo‘ladi.

## 3-bob. Talabalar tarkibidan chiqarib yuborish

6. Universitet Ustavi va o‘quv jarayoni shartlariga ko‘ra quyidagi holatdarda talabalar tarkibidan chiqarib yuboriladi (qayta tiklanmaslik sharti bilan ):
   **6.1.** O‘qishini boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirganida;
   **6.2.** Boshqa oliy ta’lim muassasiga o‘qishga kirgani aniqlanganida;
   **6.3.** O‘quv yurti hududida va talabalar turar joyida alkogolli ichimliklar (pivo, aroq, vino va boshqalar), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste’mol qilish, shuningdek shu moddalar ta’sirida

bo‘lgan, iste’mol qilgan holda kelib, darslarda qatnashish yoki universitet hududida bolish holatlari aniqlanganda;

**6.4.** Bezorilik qilish, mushtlashish yoki turli ommaviy janjallarda ishtirok etgani aniqlanganda;

**6.5.** Universitet hududida azart o‘yinlarni o‘ynash, pirotexnika buyumlaridan foydalanish, sovuq qurol (pichoq, finka, xanjar, kastet va hokazo)larni hududga olib kirish va o‘zi bilan olib yurish xolatlari aniqlanganda;

**6.6.** Milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi materiallarni har qanday shaklda tayyorlash, saqlash, tarqatish va namoyish etish holatlari aniqlanganda

**7.** Talabalar tarkibidan chiqarib yuborilgan talabalar kelgusida o‘qishga qayta tiklash huquqiga ega bo‘lmaydi va takroran o‘qishga qabul qilinmaydi.

## 4-bob. Talabalar safidan chetlashtirishni rasmiylashtirish

**8.** Nizomning **4.1 bandi** asosida (Shartnomada belgilangan kontrakt shartlarini bajarmaganligi sababli) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**8.1.** Shartnoma shartlari bajarilmaganligi to‘g‘risida dekan va buxgalteriya bo‘limi bildirgisi olinadi va rektorga taqdim etiladi;

**8.2.** Bildirgi asosida buyruq loyihasi tayyorlanadi va tegishli dekanlar hamda buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i tomonidan imzolanadi;

**8.3.** Talabalar safidan chetlashtirish to‘g‘risida rektor buyrug‘i chiqariladi;

**9.** Nizomning **4.2 bandi** asosida (Talabaning arizasiga ko‘ra o‘z xoxishi bilan) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**9.1.** Talaba o‘quv bo‘limiga ariza bilan murojaat qiladi;

**9.2.** O‘quv bo‘limida tasdiqlangan shakl talaba tomonidan to‘ldiriladi va dekanat tomonidan imzolanadi (shakl 1-ilovada keltiriladi);

**9.3.** Talabaning arizasida ko‘rsatilgan sabablar o‘quv bo‘limi tomonidan tekshiriladi va tasdiqlash yoki rad etish hulosasi beriladi;

**9.4.** Ariza qo‘shimcha sifatida qo‘yidagilar ilova qilinadi:

- Kutubxona ma’lumotnomasi (2-ilovada keltiriladi);
- Talabalar turar joyi ma’lumotnomasi (3-ilovada keltiriladi);
- Kontrakt to‘lovlari to‘g‘risidagi buxgalteriya ma’lumotnomasi (4-ilovada keltiriladi);
- Pasport yoki shaxs guvohnomasi nusxasi.

**9.5.** Talabalar safidan chetlashtirish to‘g‘risidagi rektor buyrug‘i chiqariladi;

**9.6.** Talabalar safidan chetlashtirish to‘g‘risidagi rektor buyrug‘i arizachining murojaatiga ko‘ra 15 kalendar kun ichida bekor qilinishi mumkin. Buyruq bekor qilingan holda talaba o‘z guruhida tahsil olishiga ruxsat beriladi.

**10.** Nizomning **4.3 bandi** asosida (Akademik ta’til muddati tugagandan so‘ng, 3 hafta (21 kun)dan ortiq muddat ichida universitetga qaytib kelmagan hollarda) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**10.1.** Akademik ta’til muddati tugagan talabalar ro‘yxati o‘quv bo‘limi tomonidan shakllantiriladi;

**10.2.** Talabalar safidan chetlashtirish to‘g‘risidagi rektor buyrug‘i chiqariladi.

**11.** Nizomning **4.4 bandi** asosida (4 haftadan ortiq sababsiz dars qoldirgan hollarda) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**11.1.** 4 haftadan ortiq darslarga sababsiz qatnashmagan talabalar ro‘yxati dekanatlar tomonidan shakllantiriladi;

**11.2.** Mazkur talabalarga tegishli tartibda ogohlantirish xatlari taqdim etiladi va ulardan tushuntirish xatlari olinib universitetning talabalar bilan ishlash bo‘limiga taqdim etiladi;

KOREYA XALQA
TASDIQLANDI
o‘quv bo‘limi
APPROV
교무처

**11.3.** Darslarga sababsiz qatnashmagan talabalarni universitetdan chetlashtirilishi haqida talabalar bilan ishlash bo'limining hulosasi shakllantiriladi va dekanlar tomonidan tasdiqlanadi;

**11.4.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

**12.** Nizomning **4.5 bandi** asosida (3 marotaba akademik ogohlantirish olgan hollarda) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**12.1.** 3 marotaba akademik ogohlantirish olgan talabalar ro'yxati o'quv bo'limi tomonidan shakllantiriladi;

**12.2.** 3 marotaba akademik ogohlantirish olgan talabalarni universitetdan chetlashtirilishi haqida o'quv bo'limining hulosasi shakllantiriladi va dekanlar tomonidan tasdiqlanadi;

**12.3.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

**13.** Nizomning **4.6 bandi** asosida (Bir semestr davomida darslarning 5 ta va undan ko'p fanlarni o'zlashtirmagan (F baho olgan) vaziyatda) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**13.1.** Ko'p fanlarni o'zlashtirmagan talabalar ro'yxati o'quv bo'limi tomonidan shakllantiriladi;

**13.2.** Talabalarni universitetdan chetlashtirilishi haqida o'quv bo'limining hulosasi shakllantiriladi va dekanlar tomonidan tasdiqlanadi;

**13.3.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

**14.** Nizomning **4.7 bandi** asosida (Ichki tartib-qoidalar, odob-ahloq Kodeksi qoidalari buzilishi yuzasidan universtet intizomiy komissiya qarori asosida) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**14.1.** Intizomiy komissiyasi tomonidan muxokama qilingan va tegishli qaror chiqarilganligi haqida talabalar iblan ishlash bo'limi tomonidan xulosa tayyorlanadi va o'quv bo'limiga taqdim etiladi;

**14.2.** Talabalarni universitetdan chetlashtirilishi haqida o'quv bo'limining hulosasi shakllantiriladi va dekanlar tomonidan tasdiqlanadi;

**14.3.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

**15.** Nizomning **4.8 bandi** asosida (Talaba sud tomonidan ozodlikdan maxrum etilganligi munosabati bilan) talabalar safidan chetlashtirish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**15.1.** Sud qarori olingan kuni talabalar bilan ishlash bo'limi tomonidan taqdimnoma tayyorlanadi;

**15.2.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi

## 5-bob. Talabalar tarkibidan chiqarib yuborish rasmiylashtirish

**16.** Nizomning **6.1 bandi** asosida (O'qishini boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirganida) talabalar tarkibidan chiqarib yuborish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:

**16.1.** O'qishini ko'chirib ketayotgan o'quv yurti rahbari imzosi va muxri bilan tasdiqlangan aloqa xati universitet o'quv bo'limiga taqdim etiladi;

**16.2.** Talaba tasdiqlangan shakli bilan o'quv bo'limiga ariza yozadi;

**16.3.** Universitet tomonidan berilgan chegirmalar to'langanligi to'g'risida buxgalteriya ma'lumotnomasi shakllantiriladi (5-ilovada keltiriladi);

**16.4.** Ariza berilgan kungacha bo'lgan davrda o'qigan kunlar hisobidan kontrakt to'lovlarini to'laganligi haqida buxgalteriya ma'lumotnomasi shakllantiriladi (6-ilovada keltiriladi);

**16.5.** Ariza qo'shimcha sifatida qo'yidagilar ilova qilinadi:

- Kutubxona ma'lumotnomasi (2-ilovada keltiriladi);
- Talabalar turar joyi ma'lumotnomasi (3-ilovada keltiriladi);
- Pasport yoki shaxs guvohnomasi nusxasi;

**16.6.** Talabalar tarkibidan chiqarib yuborish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

17. Talabalar tarkibidan chiqarib yuborish tug'risidagi rektor buyrug'i arizachining murojaatiga ko'ra 15 kalendar kun ichida bekor qilinishi mumkin. Buyruq bekor qilingan holda talaba o'z guruhida tahsil olishiga ruxsat beriladi.
18. Nizomning **6.2 bandi** asosida (Boshqa oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirgani aniqlanganida) talabalar tarkibidan chiqarib yuborish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:
    **18.1.** Talaba boshqa o'quv yurtida tahsil olayotganligi to'g'risidagi ma'lumot o'quv bo'limi tomonidan ko'rib chiqiladi va hulosa beriladi;
    **18.2.** Talabalar safidan chetlashtirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.
19. Nizomning **6.3, 6.4, 6.5, 6.6 bandlari** asosida talabalar tarkibidan chiqarib yuborish jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:
    **19.1.** Universitet ichki tartib qoidalari va odob-ahloq kodeksi qoidalarini buzgan talabalar bo'yicha talabalar bilan ishlash bo'limi tomonidan hulosa taqdim etiladi;
    **19.2.** Hulosa asosida buyruq loyihasi tayyorlanadi va dekanatlar bilan kelishiladi;
    **19.3.** Talabalar tarkibidan chiqarib yuborish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.

## 6-bob. Talabalar safidan chetlashtirish yoki talabalar tarkibidan chiqarib yuborish haqida buyruqning bekor qilinishi.

20. Mazkur Nizomning 2- va 3- boblar asosida chetlashtirish yoki chiqarib yuborish to'g'risidagi buyruq quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:
    - Asoslovchi ma'lumotlar yoki xujjatlar yetarli bo'lmasa yoki ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlansa;
    - Universitet Kengashining Qarori asosida. Bunda buyruqning bekor qilinishiga sabab bo'lgan va'jlar aniq ko'rsatib o'tilishi lozim;
21. Nizomning **4.2 bandiga** asoslanib talabalar safidan chetlashtirilgan talabalar buyrug'i arizachining murojaatiga ko'ra 15 kalendar kun ichida bekor qilinishi mumkin.

## 7-bob. Chetlashtirilgan talabalarni universitet talabalari safiga tiklash

22. Nizom 2-bobida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha chetlashtirilgan talabalarni universitet talablari safiga tiklash jarayoni semestr boshlanishidan e'tiboran 12 (o'n ikki) kalendar kun davomida bo'lib o'tadi.
23. Talabalar safiga tiklashda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:
    **23.1.** Semestr uchun belgilangan kontrakt to'lovini 100% to'lash;
    **23.2.** Tiklanayotgan vaqtda o'z yo'nalishida tahsil olayotgan guruh bo'lishi lozim;
    **23.3.** Tiklanayotgan vaqtda o'z yo'nalishida tahsil olayotgan guruh bo'lmasa, turdosh yo'nalishidagi guruhga tiklanishi mumkin;
    **23.4.** Tiklanayotgan guruhida bo'sh o'rin mavjud bo'lsa.
24. Talabalar safiga tiklash jarayonida quyidagi rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi:
    **24.1.** Talaba tasdiqlangan shakli bilan o'quv bo'limiga ariza yozadi(6-ilovada keltiriladi);
    **24.2.** Kontrakt to'langanligi to'g'risida buxgalteriya ma'lumotnomasi taqdim etiladi;
    **24.3.** Ariza qo'shimcha sifatida qo'yidagilar ilova qilinadi:
        - Pasport yoki shaxs guvohnomasi nusxasi;
    **24.4.** Talabalar safiga tiklash to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi.
25. Quyidagi holatlarda talabalar safiga tiklash to'g'risidagi ariza rad etiladi:
    - Ariza berish muddati tugagan, semestr boshlanishidan e'tiboran 12(o'n ikki) kalendar kunidan o'tib ketgan bo'lsa;

Ilova №1

# 자 퇴 원 서 (O'qishdan ketish uchun ariza)

| 지도교수<br>Kurator | 학과장<br>Dekan | | 교학처 O'quv bo'limi | |
|---|---|---|---|---|
| | | | 접수일자 Sana | 확 인 Imzo |
| | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 성 명<br>F.I.O | | | 학 번<br>Talaba ID si | |
| 소 속<br>Yo'nalish 학과<br>(Fakultet) | | | 이수 학년, 학기<br>Kurs, semestr | |
| 보 호 자<br>Vasiy | 성 명<br>F.I.O | | | |
| | 전 화<br>Uy tel. raqami: | | 휴대폰<br>Mob. tel. raqami: | |
| 사무처 확인<br>Huj. b. i. bo'limi<br>서명 Imzo: | 최종 등록금 납부일<br>Kontrakt to'lovi oxirgi sanasi | | 환불금액 확정일<br>Qaytariladigan summa uchun asos qilingan sana | |
| | 납입 등록금<br>To'lov summasi | | 환불 등록금액<br>Qaytariladigan summa | |

본인은 다음과 같은 사유로 인하여 자퇴원서를 제출하오니 허락하여 주시기 바랍니다.

자퇴사유 Ariza berish uchun sabablar quyidagicha:

20 년(yil) 월(oy) 일(kun)

본 인 성명 Arizachi F.I.O: (인)

보호자 성명 Vasiy F.I.O: (인) 관계 (Qarindoshligi):

**페르가나 한국국제대학교 교무처장 귀하**

※ **첨부 Ilova : 1. 상담기록부 1 부. Maslahat qaydnomasi**

KOREYA XALQARO
«TASDIQLANDI» O'quv bo'limi
APPROVE
교무처

Ilova №1

# 상담기록부 Maslahat qaydnomasi

## (자퇴, 미등록, 휴학기간경과, 기타)

| 성 명<br>F.I.O | | 학 년<br>Kurs | | 학 번<br>Talaba ID | |
|---|---|---|---|---|---|
| 소 속 Yo'nalish | 학과 Fakultet | | | | |

상담 내용 및 확인/ Maslahat mazmuni

※ 다음 해당 항목에 직접 답하거나 □ 에 ✓ 표. 복수응답도 가능.

**1. 제적(자퇴)사유는? Ariza berish uchun sabab**

□학교가 마음에 들지 않아서
Universitet yoqmaganligi uchun

□학과가 적성에 맞지 않아서
Fakultet qobiliyatlarimga mos emasligi sababli

□학과가 내 기대(취업, 진로 등)를 충족시켜주지 못할 것 같아서
Fakultet men kutgan darajada ishga joylashishimga yordam bermaydi deb o'ylayman

□학과의 무관심이나 구성원 간 불화
Fakultetning talabalarga e'tiborsizligi yoki kelishmovchiliklar sababli

□타대학 진학을 위해
Boshqa OTMga o'qishga kirganligim sababli

□경제적인 어려움이나 가정 사정에 의해
Moliyaviy qiyinchiliklar yoki oilaviy sabablar

□미등록이나 휴학기간 경과로
Kontrakt to'lanmaganlik / Ak. ta'til muddati tugaganlik

□기타(구체적으로 기입): ______________________________
Boshqalar (aniq sabablari kiritilsin)

**2. 자퇴 결심 시기는? O'qishdan ketishga qachon qaror qildingiz?**

□입학 당시부터
Qabul paytidan buyon shu fikrdaman

□ __학년__학기부터
kurs semestrdan buyon

**3. 자퇴와 관련하여 주로 상담이나 논의를 한 사람은? Qaroringiz bo'yicha kim bilan maslahatlashdingiz?**

□학부모(보호자)
Ota-ona (Vasiy) bilan

□소속학부(과)교수
Fakultet professori bilan

□친구
Do'st-o'rtoq bilan

□선배
Yuqori kurslar bilan

□형제친척
Qarindoshlar bilan

□독자적 결정
O'zim mustaqil ravishda

**4. 제적(자퇴) 후의 계획은? O'qishdan ketgangan keyingi rejalaringiz qanday?**

□타대학 진학(수능 등의 입시 준비)
Boshqa OTMga o'qishga kirish

□타대학 편입
Boshqa OTMga o'qishni ko'chirish

□취업
Ishga joylashish

□유학
Chet-elga o'qishga ketish

□기타(구체적으로 기입): ______________________________
Boshqalar (Aniq kiritilsin)

**※ 학과장과 학부모(보호자) 상담:(방문, 전화, 기타 등 상담방법과 상담내용 기입)**
**Dekan hamda ota-ona yoki vasiy bilan o'tkazilgan suhbat mazmuni kiritilsin.**

**※ 학부(과)장 상담의견 Dekan xulosasi**

| **※ 앞으로 재입학 권리가 없음**<br>**(kelgusida tiklanish huquqi berilmasin)** ☐ | **※ 앞으로 재입학 권리가 있음**<br>**(kelgusida tiklanish huquqi berilsin)** ☐ |
|---|---|

20 년(yil) 월(oy) 일(kun)

학부(과)장 Dekan: (서명 또는 인) Imzo

UNIVERSITETI

**Ilova №2**

# M A ‘ L U M O T N O M A

Berildi ushbu ma’lumotnoma shu haqdakim, Farg‘ona shahridagi Koreya Xalqaro Universiteti ______________________________________________ fakulteti _________ guruhi _____________ kurs talabasi____________________

________________________________________________________________ ning haqiqatdan ham Universitet ARMdan karzi mavjud emas.

**ARM raxbari:** .......................................

**Ilova № 3**

# BILDIRIShNOMA

Berildi ushbu bildirishnoma shu xaqdakim

________________________________________________________________

________________________________________________________________

________________________________________________________________

________________________________________________________________

Xaqiqatdan ham _________________dan _________________gacha _____________________xonada shartnoma asosida talabalar turar joyida istiqomat qilgan.

Komendant :_____________________________________.......................................

Bosh hisobchi: __________________________________.......................................

Yotoqxona boshqaruvchisi: _______________________ .......................................

**Ilova № 4**

| 학생명 Talabaning ismi-familiyasi | 학과 Fakulteti | 학년 Kurs | 1 학기수업료 (장학금공제후) Semestr uchun kontrak summasi | 총 수업일수 Jami semestrda o`qish kunlari | 1 일 수업료 (USD) 1 kun uchun to`lov ($ da) | 자퇴/전학 신청일 Ariza berilgan sana | 개학일 O'qish boshlanish sanasi | 기간 (A) O`qigan davr davomiyligi (kun) | 해당기간 수업료 (o`qigan davr uchun tolov) | | | 납입 등록금(숨) To'langan kontrakt summasi (so`m) | 환불(추징) 금액(숨) Qaytariladigan summa (so`m) | 사무처 서류접수 일 Xujjat topshirgan sana | 환불일자 To'lovni qaytarish sanasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | USD | 환율 Valyuta kursi | (숨) Summa (so`m) | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | | | |

Muhr imzo

**Ilova № 5**

전학을 위한 성적증명서 발급시 / 전학을 위한 자퇴신청시 장학금 반환 확인서

Boshqa OTMga ko′chirish uchun AKADEMIK MA'LUMOTNOMA olish yoki boshqa OTMga ko‘chirish uchun talabalar safidan o‘z xohishi bilan chiqish arizasi berganda olingan imtiyoz-chegirmalar qaytarilganligi haqida

## MA'LUMOTNOMA

<table>
<tr><td>성명 Talabaning FISh</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td>학과 Fakultet(yo‘nalish)</td><td colspan="10"></td></tr>
<tr><td rowspan="3">지원 받은 장학금<br>Olingan imtiyoz-chegirmalar</td><td colspan="10">현재까지 지원 받은 장학금<br>Hozirgacha olingan imtiyoz-chegirmalar</td></tr>
<tr><td colspan="2">1 학년 kurs</td><td colspan="2">2 학년 kurs</td><td colspan="2">3 학년 kurs</td><td colspan="2">4 학년 kurs</td><td colspan="2">총액 Jami</td></tr>
<tr><td colspan="2"></td><td colspan="2"></td><td colspan="2"></td><td colspan="2"></td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td rowspan="2">장학금 환불<br>Olingan imtiyoz-chegirmalar qaytarish</td><td colspan="5">장학금총액<br>Jami Olingan imtiyoz-chegirmalar summa</td><td colspan="5">장학금 환불일<br>Olingan imtiyoz-chegirmalar sanasi</td></tr>
<tr><td colspan="5"></td><td colspan="5"></td></tr>
</table>

Bosh buxgalter: ..............................

.......-kurs bo′yicha buxgalter: ..........................

--------------------------------------------------------------------------------------------------------

Ilova № 6

# 개강 이후 수업일수에 의한 수업료 납부 확인서
## O`quv yili boshlanishiga qarab kontraktni to`lash ma`lumotnomasi

<table>
<tr><td>학과 Fakultet</td><td></td></tr>
<tr><td>학번 ID</td><td></td></tr>
<tr><td>성명<br>Ismi Familiya</td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">개강 기간(일수) O`quv yili boshlangan kuni</td></tr>
<tr><td colspan="2">2023. 09 .04 ~ 2023. . .( 일)</td></tr>
<tr><td>학생 신청일<br>Talabaning ariza bergan kuni</td><td>_______________________개강 이후 위 기간이 지났음을 확인합니다 .<br>Men o`quv yili boshlanganidan keyin __________ kun o`tganini tasdiqlayman.<br><br>신청일 2023 yil oy kun<br><br>이름 O'quvchi F.I.Sh 서명 imzo:</td></tr>
<tr><td>학과장<br>Fakultet dekani</td><td>위 학생은 상기된 기간이 지났음을 확인합니다<br>Yuqoridagi talabani o`quv yili boshlanish davri, o'tganligini tasdiqlayman<br>2023 yil oy kun<br><br>성명 F.I.Sh _________________ 서명 Imzo</td></tr>
<tr><td>교무처 부총장<br>O`quv ishlar bo`yicha prorektori</td><td>위 학생은 상기된 기간이 지났음을 확인합니다<br>Yuqoridagi talabani o`quv yili boshlanish davri, o'tganligini tasdiqlayman<br>2023 yil oy kun<br><br>성명 F.I.Sh _________________ 서명 Imzo</td></tr>
<tr><td colspan="2">사무처 BUXGALTERIYA</td></tr>
<tr><td>금액<br>Summa</td><td>일수 kun ______x________금액 summa = __________So`m</td></tr>
<tr><td colspan="2">등록금 납입 확인 담당자 Kontrakni to`laganligini tekshirgan mas`ul shaxs 성명 F.I.Sh<br><br>서명 imzo<br><br>2023 yil oy kun</td></tr>
</table>

Ilova № 7

# 재 입 학 원 서 (O'qishga tiklash uchun ariza)

| 지도교수 Kurator | 학과장 Dekan | | 교학처 O'quv bo'limi: 접수일자 Sana | 교학처 O'quv bo'limi: 확 인 Imzo |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 성 명 F.I.O | | 학 번 Talaba ID raqami | | | |
| **O`qishga tiklanayotgan yo`nalishi, kursi va guruhi** | | | | | |
| 소 속 Yo'nalish 학과 (Fakultet) | | 이수 학년, 학기 Kurs, semestr | | 분반 guruh | |
| 납부할 등록금액 (초기 분할 납부액) To`lanishi lozim bo`lgan kontrakt summasi (boshlangich to`lov) | | Kontrakt to`lovini amalga oshirishning ohirgi sanasi | | | |
| 보 호 자 Vasiy | 성 명 F.I.O | | | | |
| | 전 화 Uy tel. raqami: | | 휴대폰 Mob. tel. raqami: | | |

본인은 다음과 같은 사유로 인하여 재입학원서를 제출하오니 허락하여 주시기 바랍니다.

______________________________________________

사유 Ariza berish uchun sabablar quyidagicha:

..............................................................................................

..............................................................................................

..............................................................................................

20 년(yil) 월(oy) 일(kun)

본 인 성명 Arizachi F.I.O: (인)

보호자 성명 Vasiy F.I.O: (인) 관계 (Qarindoshligi):

비고: 등록금 납부 증명서를 제출한 날부터 복학 처리 되며 수업에 참여 할 수 있게 허가 됩니다.

Izoh: kontrakt to`lovi amalga oshirilganligini tasdiqlovchi xujjat taqdim etilgan kundan boshlab talabalar safiga tiklash haqida buyruq rasmiylashtiriladi va o`qishga ruxsat beriladi.

# Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti

# Talabalarni kusrdan kusga o'tkazish to'g'risidagi Nizom

## 1-bo'lim. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetida tahsil olish davrida talabalarning kursdan kursga o'tkazish jarayonlari uchun joriy etiladi.
2. Talabalarning kursdan kursga o'tkazilishi universitet rektorining buyrug'iga muvofiq rasmiylashtiriladi.
3. Nizomda ko'rsatilgan qoidalar Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti professorlar Kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi va zarur holatlarda tegishli qaror bilan o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lib, o'zgarishlarning kuchga kirish va amal qilish muddati Kengash qarorida ko'rsatib o'tilgan tartibda mazkur Nizomdagi o'zgarishlar qonuniy kuchga kirishi belgilanadi.

## 2-bo'lim. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish

4. Universitet Ustavi va o'quv jarayoni tartib-qoidalariga ko'ra quyidagi shartlar asosida talabalar kursdan-kursga o'tkaziladi:
   **4.1.** Shartnomada belgilangan kontrakt shartlarini to'liq bajargan talabalar;
   **4.2.** Bir semestr davomida darslarning 50% dan ortiq kreditlarni to'plagan talabalar;
   **4.3.** Ichki tartib-qoidalar, odob-ahloq Kodeksi qoidalari buzilishi yuzasidan universtet intizomiy choralar olmagan talabalar;
   **4.4.** Akademik ogohlantirish olmagan talabalar;
   **4.5.** O'quv yili natijasiga ko'ra umumiy o'zlashtirish ko'rsatgichi GPA=1.0 va undan yuqori bo'lgan talabalar.

## 3-bo'lim. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazilishini rasmiylashtirish

5. Nizomning **2-bo'limi** asosida talabalarni kursdan-kursga o'tkazish jarayoni quyidagi rasmiylashtirish ishlari bilan amalga oshiriladi:
   **5.1.** Shartnoma shartlari bajargan va fanlarni to'liq o'zlashtirib, kreditlarni to'plagan talabalar to'g'risida dekan bildirgisi rasmiylashtiriladi va rektorga taqdim etiladi;
   **5.2.** Shartnoma shartlari bajargan talabalar ro'yxati universitet buxgalteriya tomonidan tekshiriladi va bosh buxgalter tomonidan tasdiqlanadi (imzolanadi va muxr bosiladi);
   **5.3.** Dekan bildirgi asosida buyruq loyihasi tayyorlanadi va tegishli dekanlar tomonidan imzolanadi;
   **5.4.** Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish to'g'risida rektor buyrug'i chiqariladi;

## 4-bo'lim. Talabalarni kursda qoldirish.

6. Universitet Ustavi va o'quv jarayoni tartib-qoidalariga ko'ra quyidagi holatlarda talabalar tahsil olgan kursida qoldiriladi:
   **6.1.** Shartnomada belgilangan kontrakt shartlarini to'liq bajarmagan talabalar;

**6.2.** Bir semestr davomida darslarning 5 tadan ko'p fanlar kreditlarini o'zlashtirmagan (F baho olgan) talabalar; Agar dekan talaba bilan suhbat orqali yozma bildirgi bersa va talaba tilxatini taqdim etsa (talaba va ota-onalarning imzolari talab qilinadi) shartli kursda-kursga o'tishi mumkin.

**6.3.** Ichki tartib-qoidalar, odob-ahloq Kodeksi qoidalari buzilishi yuzasidan universtet intizomiy chora olgan talabalar (Universitet Kengashining qarori asosida);

**6.4.** 2-marotaba akademik ogohlantirish berilgan talabalar;

**6.5.** O'quv yili natijasiga ko'ra umumiy o'zlashtirish ko'rsatgichi GPA=1.0 dan kam bo'lgan talabalar.

## 5-bo'lim. Talabalarni kursda qoldirilishini rasmiylashtirish

**7.** Talabalarni o'zi tahsil olgan kursida qoldirish jarayoni quyidagi rasmiylashtirish ishlari bilan amalga oshiriladi:

**7.1.** Fanlarni o'zlashtirmagan, 50%dan kam kreditlarni to'plagan talabalar, intizomiy chora olgan, 2-marotaba akademik ogohlantirish berilgan, o'zlashtirish ko'rsatgichi GPA=1.0 dan kam bo'lgan talabalarning har biridan kursda qoldirish sababi bilan tanishganligi haqida tushuntirish xati olinadi. Tushuntirish xati yozishdan bosh tortish holatida yoki shu talaba o'qishga kelmayotgan bo'lsa dekanatning professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilgan komissiya bayonnoma yoziladi.

**7.2.** Fanlarni o'zlashtirmagan, 50%dan kam kreditlarni to'plagan talabalar, intizomiy chora olgan, 2-marotaba akademik ogohlantirish berilgan, o'zlashtirish ko'rsatgichi GPA=1.0 dan kam bo'lgan talabalar to'g'risida dekan bildirgisi rasmiylashtiriladi va rektorga taqdim etiladi;

**7.3.** Dekan bildirgisi asosida buyruq loyihasi tayyorlanadi va tegishli dekanlar tomonidan imzolanadi;

**7.4.** Talabalarni kursda qoldirish to'g'risidagi rektor buyrug'i chiqariladi;

**7.5.** Buyruq mazmuni haqidagi xabar dekanatlar tomonidan talabalarga yetkaziladi.(ijtimoiy tarmoq, telegram guruhlar yoki e'lonlar orqali)

## 6-bo'lim. Talabalarni kursdan-kursga o'tkazish haqida buyruqning bekor qilinishi.

**8.** Talabalarning kursdan-kursga o'tkazish to'g'risidagi buyruq quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:

- Asoslovchi ma'lumotlar yoki xujjatlar yetarli bo'lmasa yoki ma'lumotlar noto'g'riligi aniqlansa;
- Universitet Kengashining Qarori asosida. Bunda buyruqning bekor qilinishiga sabab bo'lgan va'jlar aniq ko'rsatib o'tilishi lozim;

## Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga boshqa o'quv yurtidan ko'chirib kelish NIZOMI

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini ko'chirib uchun joriy etiladi.
2. Faqat akkreditatsiyalangan O'zbekiston Respublikasi va xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga ko'chirishga ruxsat beriladi.
3. O'qishini Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga ko'chirish **suhbat** asosida amalga oshiriladi.
4. Tahsil olayotgan o'quv yurtidagi mutaxassisligi Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetidagi mos yoki turdosh bo'lgan ta'lim yo'nalishiga ko'chirishga ruxsat beriladi.
5. Nizomda ko'rsatilgan qoidalar Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti professorlar Kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi va zarur holatlarda tegishli qaror bilan o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lib, o'zgarishlarning kuchga kirish va amal qilish muddati Kengash qarorida ko'rsatib o'tilgan tartibda mazkur Nizomdagi o'zgarishlar qonuniy kuchga kirishi belgilanadi.

### 2-bob. Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini ko'chirish tartibi va davri

6. Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini ko'chirish jarayoni quyidagi shartlar asosida belgilanadi:
   - **6.1.** Tahsil olayotgan o'quv yurtidagi ta'lim yo'nalishi Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetidagi ta'lim yo'nalishiga mos yoki turdosh bo'lishi lozim. Mos yoki turdosh bo'lmagan yo'nalishiga o'qishini ko'chirib kelishga ruxsat berilmaydi;
   - **6.2.** Tahsil olgan ta'lim shakli (kunduzgi, sirtqi, kechki) Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetidagi ta'lim shakliga mos kelishi shart. Mos kelmagan shakliga o'qishini ko'chirishga ruxsat berilmaydi;
   - **6.3.** Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar bo'yicha aniqlangan farq(tafovut) miqdori kelgusi tahsil oladigan davrining bir semestr uchun 6 (olti) kreditdan, bir o'quv yili hisobidan 12 kreditdan ko'p bo'lmasligi shart;
   - **6.4.** Bir semestr uchun 6 (olti) kreditdan, bir o'quv yili hisobidan 12 kreditdan ko'p bo'lsa, bir kurs yoki bir semestr past guruhlarga ko'chirishga ruxsat berilishi mumkin, bu haqda arizachiga rasmiy tarzda o'quv bo'limi xulosasi taqdim etiladi ( xulosa namunasi 2-ilovada keltirilgan)
   - **6.5.** Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga ko'chirilayotgan ta'lim yo'nalishidagi tegishli guruhida talabalar soni 40 nafardan ortib ketmasligi shart.
7. Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini ko'chirish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:
   - O'quv yili boshlanishidan oldin, ya'ni 1-31 avgust davomida;
   - Bahorgi semestr boshlanishidan oldin, ya'ni 1-yanvar davomida;

## 3-bob. O'qishni ko'chirish jarayonini rasmiylashtirish

**8.** Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini jarayoni quyidagi rasmiylashtirish asosida amalga oshiriladi:

**8.1.** O'quv bo'limiga yozma yoki og'zaki ariza bilan murojaat qiladi;

**8.2.** O'quv bo'limi arizachi tahsil olayotgan o'quv yurtining akkreditatsiyalanganligi va litsenziyasi mavjudligi tekshiriladi yoki arizachi tomonidan taqdim etilishi so'raladi;

**8.3.** Arizachi tahsil olayotgan o'quv yurti tomonidan berilgan akademik ma'lumotnoma yoki transkript asosida fanlar bloki aniqlanadi va koreys tiliga tarjima qilinadi;

**8.4.** Arizachining akademik ma'lumotnomasi yoki transkriptidagi fanlar Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti tegishli mos yoki turdosh yo'nalishining dekantalari tomonidan o'quv rejasiga taqqoslanadi va kreditlari tan olinadigan fanlar ro'yxati shakllantiriladi. Bunda o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan kreditlarni tan olish shakli rasmiylashtiriladi va dekanat hamda o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlanadi.(shakl 1-ilovada keltiriladi);

**9.** Mazkur Nizomning 5.1., 5.2, 5.3, 5.4 bandlarida ko'rsatilgan shartiga javob bergan holda o'qishini ko'chirish uchun quyidagi ishlar bajarilishi lozim:

**9.1.** Arizachi o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan ariza yozadi va dekanat hamda o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlanadi;

**9.2.** Ariza asosida arizachi tahsil olayotgan o'quv yurti rahbari nomiga rasmiy xat yoziladi va oliy o'quv yurtiga yuboriladi yoki arizachining roziligi asosida unga topshiriladi;

**9.3.** Rasmiy xatda arizachi tahsil olayotgan o'quv yurtidan quyidagi xujjatlar taqdim etilishi so'raladi:

- Arizachining umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lganligini tasdiqlovchi tegishli namunadagi xujjatning (attestat, diplom) asl nusxasi;
- Akademik ma'lumotnoma yoki transkript;
- Arizachining o'quv yurtiga qabul qilinganligi, kursdan-kursga o'tkazilganligi va talabalar safidan chetlashtirilganligi to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmalar;
- O'quv varaqasi;
- Shaxsiy varaqasi;
- O'quv yurtining akkreditatsiyasi nusxasi;
- O'quv yurtining litsenziyasi nusxasi;
- O'quv yurtining rasmiy xati.

**10.** Arizachiga o'qishini Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga ko'chirishga ruxsat berish ishlari quyidagilar bilan rasmiylashtiriladi:

**10.1.** Arizachi o'quv bo'limida tasdiqlangan shaklni va arizani to'ldiradi hamda dekanat tomonidan tasdiqlaydi (shakl 2-ilova keltiriladi);

**10.2.** O'qishini ko'chirish tufayli aniqlangan farq(tafovut) fanlarni qayta o'zlashtirish bo'yicha arizachi tilxat to'ldiradi va dekanat tomonidan tasdiqlanadi (tilxat 3-ilovada keltiriladi);

**10.3.** O'qishini ko'chirib kelgan arizachi va Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti o'rtasida "Ta'lim xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi" shartnoma rasmiylashtiriladi;

**10.4.** Shartnoma asosida arizachi joriy semestr uchun belgilangan tegishli yo'nalishdagi kontrakt summasining 100% to'lovini amalga oshiradi va bu haqda tasdiqlovchi xujjatlarni o'quv bo'limiga taqdim etiladi.

**10.5.** O'qishini ko'chirib kelgan arizachini Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti talabalar safiga qabul qilish haqida rektor buyrug'i chiqariladi;

EYA XALQARO
«ASDIQLANDI»
O'quv bo'limi
«APPROV
교무

**10.6.** Talabalar safiga qabul qilish haqida rektor buyrug'i arizachining murojaatiga ko'ra 15 kalendar kun ichida bekor qilinishi mumkin;

## 4-bob. O'qishni ko'chirib kelgan talabalarning fanlarni (kreditlarni) o'zlashtirishi

**11.** O'qishini ko'chirib kelgan talaba mazkur Nizomning 9.2-bandiga muvofiq fanlarni o'zlashtirish reja-grafigi shaxsan o'zi tuzadi va dekanat bilan kelishadi;

**12.** Reja-grafik asosida talaba xar semestrning boshlanishidan 2 hafta davomida mos keladigan fanlarni tanlaydi va o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan shaklni to'ldiradi (shakl 4-ilova keltiriladi).

**13.** Farq fanlarni o'zlashtirish hisobiga semestr uchun ajratilgan kreditlar miqdori 23 kreditdan oshmasligi shart.

**14.** Farq fanlarni o'zlashtirishiga ruxsat berilgan shaklning 1 ta kseronusxasi talabaga taqdim etiladi va shu xujjat bilan professor-o'qituvchisiga taqdim etib, o'quv bo'limi tarafidan tegishli guruhga ro'yxatdan o'tkaziladi hamda shu kundan boshlab mashg'ulotlarda qatnashadi;

**15.** O'zlashtirilayotgan fan talabaning o'z kursidagi dars jadvaliga parallel kelmasligi shart;

**16.** O'zlashtirishi shart bo'lgan fan joriy o'quv yilidagi o'quv rejasida mavjud bo'lmasa, o'quv rejaning kelgusi davrlarda qayta o'qishi lozim. O'quv rejasida ushbu fan kelgusi davrda nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z yo'nalishdagi yoki boshqa yo'nalishidagi fan kodiga mos yoki turdosh bo'lgan fan qayta o'qishiga ruxsat beriladi, bunda dekanat tomonidan o'quv bo'limiga rasmiy ma'lumotnoma berilib, qayta o'qiladigan fan mosligi (fan dasturi bir xilligi) tasdiqlanishi lozim.

**17.** Farq fanni o'zlashtirayotgan talabaga universitetda tasdiqlangan baholash mezoni bo'yicha reyting bahosi cheklanmaydi.

## 5-bob. Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universitetiga o'qishini ko'chirish arizasining rad etilishi

**18.** O'qishini ko'chirib kelish arizasi quyidagi xolatlarda rad etiladi:

**18.1.** Arizachi tahsil olgan o'quv yurti tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingan akkreditatsiya yoki lizensiyaga ega bo'lmasa;

